

TIBBIY OLIY TA'LIM TASHKILOTLARIDA TYUTORLAR FAOLIYATI VA TA'LIM SIFATINI OSHIRISH CHORA-TADBIRLARI

Mansurov Bakidjan Mansurovich

Alfraganus universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada tibbiy oliy ta'lim muassasalarida tyutorlik faoliyatining ahamiyati, uning ta'lim sifatiga ta'siri hamda tibbiy ta'limni takomillashtirish yo'llari tahlil qilingan. Asosan talabalarni darsga qatnashish samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar aks ettirilgan. Talabalarning mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirish, klinik fikrlashni shakllantirish va raqamli ta'lim texnologiyalarini joriy etish masalalari bayon qilingan. Talabalar bilan individual ishlash mexanizmlari aks ettirilgan.

Tayanch so'z va tushunchalar: tyutor, tibbiy oliy ta'lim, klinik fikrlash, innovatsion texnologiyalar, ta'lim sifati.

Abstract. This article analyzes the importance of tutoring activities in higher medical education institutions, their impact on the quality of education, and ways to improve medical education. It primarily presents recommendations for increasing students' class attendance effectiveness. Issues such as developing students' independent learning skills, forming clinical thinking, and implementing digital educational technologies are discussed. Mechanisms for individual work with students are also described.

Keywords and concepts: tutor, higher medical education, clinical thinking, innovative technologies, quality of education.

Аннотация. В данной статье анализируется значение тьюторской деятельности в высших медицинских учебных заведениях, её влияние на качество образования, а также пути совершенствования медицинского обучения. В основном представлены рекомендации по повышению эффективности посещения занятий студентами. Рассматриваются такие вопросы, как развитие навыков самостоятельного обучения у студентов, формирование клинического мышления и внедрение цифровых образовательных технологий. Также описываются механизмы индивидуальной работы со студентами.

Ключевые слова и понятия: тьютор, высшее медицинское образование, клиническое мышление, инновационные технологии, качество образования.

Kirish. Hozirgi globallashuv sharoitida tibbiy ta'lim tizimiga qo'yilgan talablar keskin oshmoqda. Malakali shifokor mutaxassislarni tayyorlashda nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy ko'nikmalar, klinik fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda tyutorlar faoliyati alohida ahamiyatga ega.

Kasbiy oliy ta'lim olish uchun ilm dargohiga ilk qadam qo'ygan yoshlar nafaqat tanlagan kasbiy mutaxassisligi bo'yicha fan sir-asrorlarini o'zlashtirish, balki katta hayot, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini to'g'ri anglashda ham alohida maslahatga muhtoj. Tyutor — talabaning individual ta'lim yo'nalishini qo'llab-quvvatlovchi, maslahat beruvchi va yo'naltiruvchi ustoz hisoblanadi.

Tyutor lavozimida faoliyat yuritayotgan murabbiylarning kasbiy mahorati va malakasi, yoshlar masalasi hamda ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor tomonidan tuzilgan komissiya nazorati ostida bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 17-oktabrdagi 656-sonli "Oliy ta'lim tashkilotlarida tyutorlik faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risida"gi qarori oliy ta'lim sifatini yanada oshirish bo'yicha muhim dasturiy hujjat bo'lib xizmat qilmoqda.

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodlari. Maqolada tibbiyot fakul'teti talabalari bilan faoliyat olib borayotgan tyutorlar ishini nazariy va amaliy samaradorligi o'rganilgan.

Shuningdek, xorijiy va mahalliy ilmiy adabiyotlarda tyuter faoliyatining mazmuni, vazifalari va samaradorligi turli nuqtai nazardan tahlil qilingan.

Pedagogika va tibbiy ta'lim sohasidagi tadqiqotlarda tyuterning asosiy vazifasi talabani mustaqil ta'lim olishga yo'naltirish, o'quv jarayonida maslahat berish va motivatsiyani shakllantirish ekani ta'kidlanadi. Ilmiy manbalarda tyuterning faoliyati akademik maslahat berish, individual ta'lim traektoriyasini belgilash, talabalarning muammolarini aniqlash va ularga psixologik-pedagogik yordam ko'rsatish bilan bog'liq ekani qayd etilgan.

Tibbiy ta'lim sohasida olib borilgan tadqiqotlarda talabalarning yuqori o'quv yuklamasi, klinik amaliyotga moslashish murakkabligi va stress holatlari tyuterlik tizimiga bo'lgan ehtiyojni oshirishi ko'rsatilgan. Mualliflar tyuterlar orqali talabalarning akademik ko'rsatkichlari yaxshilanishi, darslarda qatnashish faolligi ortishi va kasbiy kompetensiyalar shakllanishiga ijobiy ta'sir kuzatilishini ta'kidlaydilar.

Tadqiqotlarda tyuterlarning talabalar bilan individual ishlash, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish, ijtimoiy himoyaga muhtoj talabalarni qo'llab-quvvatlash va ta'lim jarayonidagi muammolarni bartaraf etishdagi o'rni tahlil qilingan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, oliy tibbiy ta'lim muassasalarida tyuterlik faoliyati talabalarning ta'lim sifati va shaxsiy rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Biroq mazkur yo'nalishda tyuterlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, ular faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini ishlab chiqish va raqamli ta'lim muhitidagi rolini chuqur o'rganish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Mazkur tadqiqotda oliy tibbiy ta'lim muassasalarida tyuterlar ish faoliyatining mazmuni, samaradorligi va mavjud muammolarini o'rganish maqsadida kompleks yondashuv asosida ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqot jarayonida nazariy va amaliy metodlar qo'llanildi. Nazariy metodlar sifatida pedagogik, psixologik va tibbiy ta'limga oid ilmiy adabiyotlar, me'yoriy-huquqiy hujjatlar hamda ilmiy maqolalar tahlil qilindi. Ushbu tahlil orqali tyuterlik faoliyatining nazariy asoslari, asosiy funksiyalari va xorijiy tajribalar o'rganildi.

Ampirik tadqiqot metodlari sifatida so'rovnoma, suhbat va kuzatuv usullaridan foydalanildi. So'rovnoma oliy tibbiy ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan tyuterlar va talabalar o'rtasida o'tkazilib, tyuterlar faoliyatining samaradorligi, talabalar bilan ishlash jarayoni va uchrayotgan muammolar aniqlandi. Suhbat metodi orqali tyuterlarning kasbiy faoliyati, ish tajribasi va ta'lim jarayonidagi o'rni haqida batafsil ma'lumotlar olindi.

Tadqiqotning ilmiy ishonchliligini ta'minlash maqsadida turli manbalardan olingan ma'lumotlar o'zaro solishtirildi hamda tahlil natijalari ob'ektiv baholandi.

Tyutorlar quyidagi vazifalar orqali ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi:

1. talabalarni ta'lim jarayoniga moslashtirish bo'yicha maslahat beradi;
2. darsga qatnashishni muntazam nazorat qiladi;
3. talabalar bilan doimiy onlayn va oflayn muloqotda bo'ladi, bilim olishga bo'lgan munosabatini faollashtiradi;
4. har bir talabaning qobiliyatini inobatga olgan holda individual yondashuvni amalga oshiradi;
5. HEMIS platformasi orqali davomatni nazorat qiladi va qoldirilgan darslarni o'zlashtirishni tashkil etadi;
6. zarur hollarda ota-onalar bilan muloqot qilib, talabalar davomatini oshiradi;
7. talabalarda klinik fikrlashni shakllantiradi;
8. talabalarining psixologik qo'llab-quvvatlanishini ta'minlaydi;
9. raqamli platformalar orqali davomatni tahlil qilib, muammoli holatlarni erta aniqlaydi;
10. talabalarni mustaqil ta'lim olish va amaliy ko'nikmalarni to'liq o'zlashtirishga yo'naltiradi.

Natijalar va muhokama. Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, tyuterlik tizimi talabalarining akademik faolligi, mustaqil ta'lim olish ko'nikmalari va ijtimoiy moslashuv jarayonlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Tahlil natijalariga ko'ra, tyuterlar tomonidan amalga oshirilayotgan asosiy vazifalar talabalarni o'quv jarayoniga yo'naltirish, fanlarni o'zlashtirishda maslahat berish, davomat va o'zlashtirish ko'rsatkichlarini monitoring qilish hamda psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlashdan iborat ekanligi aniqlandi.

Tyuterlar tomonidan tashkil etiladigan individual suhbatlar va maslahatlar talabalarining motivatsiyasini oshirishga xizmat qilayotgani ma'lum bo'ldi. Bu esa ta'lim jarayonida "talaba-tyuter" hamkorligining ahamiyati yuqori ekanligini ko'rsatadi.

Muhokama jarayonida shu narsa ma'lum bo'ldiki, tyuterlar faoliyatining samaradorligi ularning kasbiy kompetensiyasi, kommunikativ ko'nikmalari va pedagogik mahorati bilan bevosita bog'liq. Zamonaviy oliy ta'lim tizimida tyuter nafaqat maslahatchi, balki talabaning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga ko'maklashuvchi muhim pedagogik sub'ekt sifatida ham qaralmoqda.

Shuningdek, xorijiy tajribalar tahlili tyuterlik tizimini raqamlashtirish, elektron monitoring platformalarini joriy etish va tyuterlar uchun muntazam malaka oshirish kurslarini tashkil etish ijobiy natijalar berishi mumkinligini ko'rsatdi. Bu orqali talabalar bilan ishlash sifati va ta'lim jarayoni samaradorligini yanada oshirish mumkin.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari oliy ta'lim muassasalarida tyuterlar faoliyati talabalarni qo'llab-quvvatlash, ta'lim sifatini oshirish va tarbiyaviy jarayonlarni samarali

tashkil etishda muhim o‘rin tutishini tasdiqladi. Shu bois tyuterlik institutini yanada takomillashtirish, uning huquqiy-metodik asoslarini mustahkamlash va amaliy faoliyatini qo‘llab-quvvatlash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Xulosa. Oliy tibbiy ta‘lim muassasalarida tyutorlar faoliyatini samarali tashkil etish talabalar davomatini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Individual yondashuv, innovatsion pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish, talabalarni ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb qilish, raqamli texnologiyalar va motivatsion mexanizmlar orqali ta‘lim sifati sezilarli darajada yaxshilanadi.

Talabalarning mustaqil ta‘lim olish qobiliyatini rivojlantirish hamda xalqaro standartlarga moslashish orqali raqobatbardosh, yuqori malakali tibbiy mutaxassislarni tayyorlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Alimbekova A.S., Roslyakova E.M. Rol tyutora v sovremennom meditsinskom obrazovanii. Mejdunarodnyy jurnal eksperimentalnogo obrazovaniya. 2016. №2, 219–221-betlar.
2. Artemenko V.V., Vastyanov R.S. Tyutorstvo v protsesse integralnogo podxoda v innovatsionno-simulyatsion metodike obucheniya studentov medikov. Odesskiy meditsinskiy jurnal. 2024.
3. Jumayev R.R. Tibbiy ta‘limda innovatsion texnologiyalar. Samarqand, 2021.
4. Galushina P.S., Neverova O.T. Tyutorstvo v sisteme sovremennogo vysshego obrazovaniya. “Pravo i upravleniye” jurnali. №11, 2024, 115–117-betlar.
5. Grigorev G.I., Efremov R.E. Vestnik Severo-Vostochnogo federalnogo universiteta im. M.K. Ammosova. “Meditsinskiye nauki” seriyasi. №2, 2017.

